**Аннотация.** В условиях устойчивого развития сельского хозяйства и поэтапного перехода к ресурсосберегающим технологиям беспилотные летательные аппараты (агродроны) становятся перспективным средством механизации. В статье предложена интегральная методика комплексной оценки влияния технологий беспилотных летательных аппаратов на экономию трудовых и энергетических ресурсов в сельском хозяйстве. Методика основана на оптимизации и объединении в единый интегральный индекс пяти групп показателей: производительности труда, энергоэффективности, расхода топлива и мощности, расхода воды и экономической эффективности с использованием метода взвешенной суммы. Расчёты выполнены на примере обработки хлопчатника с сопоставлением традиционной (тракторной) и беспилотной технологий. Полученные результаты показывают, что интегральный показатель эффективности технологии агродронов в условиях экспериментальных испытаний значительно выше, что подтверждает практическую значимость предложенной методики для количественной оценки ресурсосбережения.

**Ключевые слова:** агродрон, ресурсосберегающие технологии, эффективность механизации, интегральная оценка, производительность труда, энергоэффективность, точное земледелие, Узбекистан.

**Abstract.** Under conditions of sustainable agricultural development and the gradual transition to resource-efficient technologies, unmanned aerial vehicles (agricultural drones) are becoming a promising tool of agricultural mechanization. This study proposes an integrated assessment methodology for comprehensively evaluating the impact of drone technologies on labor and energy resource savings in agriculture. The methodology is based on optimizing and aggregating five groups of indicators—labor productivity, energy efficiency, fuel and power consumption, water consumption, and economic efficiency—into a single composite index using a weighted-sum approach. Comparative calculations were conducted for cotton crop spraying using conventional tractor-based technology and drone technology. The results demonstrate that the integrated efficiency index of drone technology is significantly higher under field test conditions, confirming the practical applicability of the proposed methodology for the quantitative assessment of resource efficiency.

**Keywords:** agricultural drone, resource-efficient technologies, mechanization efficiency, integrated assessment, labor productivity, energy efficiency, precision agriculture, Uzbekistan.

## KIRISH

Jahon qishloq xo'jaligi bugungi kunda bir vaqtning o'zida ikki yo'nalishdagi qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda: bir tomondan, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun mahsuldorlikni oshirish zarurati, ikkinchi tomondan esa cheklangan tabiiy resurslar — suv, energiya, mehnat va yerdan tejamkor foydalanish talabi. Aynan shu qarama-qarshilik resurs tejamkor texnologiyalarni va ularning markazida turgan mexanizatsiya vositalarini takomillashtirishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. So'nggi yillarda bunday vositalar qatorida uchuvchisiz uchish apparatlari, ya'ni qishloq xo'jaligi dronlari (agrodronlar) tobora muhim o'rin egallamoqda.

Agrodronlar o'simliklarni himoya qilish vositalarini purkash, o'g'it sepish, urug' ekish, dala holatini multispektral monitoring qilish va hosildorlikni kartalashtirish kabi bir qator agrotexnik jarayonlarni yuqori aniqlik bilan bajarish imkonini beradi. An'anaviy yerusti texnikasidan farqli o'laroq, ular tuproqni zichlamaydi, kichik hajmdagi ishchi suyuqlik bilan ishlaydi, yonilg'i o'rniga elektr quvvatidan foydalanadi va inson mehnatiga bo'lgan ehtiyojni keskin kamaytiradi. Shu bois dron texnologiyalari nafaqat texnik, balki resurs tejamkorlik nuqtai nazaridan ham alohida e'tiborga loyiqdir.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va to'liq mexanizatsiyalashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-dekabrdagi PQ-431-son qarori bilan qishloq xo'jaligi texnikasiga GPS-navigatsiya tizimlarini o'rnatish, ekishni aniq donalab amalga oshirish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha aniq talablar belgilandi [8]. 2025-yil 12-avgustdagi PF-130-son Farmonida esa sohaga zamonaviy texnologiyalarni jadal joriy etish orqali samaradorlikni oshirish vazifalari qo'yildi [9]. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 721-son qarori bilan qishloq xo'jaligi agrotexnik tadbirlari uchun mo'ljallangan dronlarning maksimal uchish og'irligi 100 kilogrammgacha oshirilib, ularni keng joriy etish uchun huquqiy shart-sharoit yaratildi [16]. Bundan tashqari, matbuotda 2026-yilda mamlakatga ko'plab qishloq xo'jaligi dronlari yetkazib berilishi va Qishloq xo'jaligi vazirligi huzurida dron xizmatlarini ko'rsatuvchi tuzilma shakllantirilishi haqida ma'lumotlar e'lon qilindi [14; 18]. Bu esa dron texnologiyalarining samaradorligini ilmiy asoslangan tarzda baholash zaruratini yanada kuchaytiradi.

Biroq amaliyotda dron texnologiyalarining samaradorligi ko'pincha bitta ko'rsatkich, masalan, faqat suvni tejash yoki faqat mehnat unumdorligi orqali baholanmoqda. Bunday bir tomonlama yondashuv texnologiyaning umumiy resurs tejamkorlik salohiyatini to'liq ochib bermaydi, chunki mehnat, energiya, suv va xarajat ko'rsatkichlari o'zaro bog'liq bo'lib, ular birgalikda yaxlit samarani shakllantiradi. Shu sababli ushbu maqolaning maqsadi qishloq xo'jaligida dron texnologiyalarining mehnat va energiya resurslarini tejashga ta'sirini kompleks o'lchaydigan integral baholash metodikasini ishlab chiqish va uni paxtachilik misolida sinovdan o'tkazishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligida uchuvchisiz uchish apparatlaridan foydalanish va ularning resurs tejamkorlikka ta'siri so'nggi o'n yillikda jadal o'rganilayotgan ilmiy yo'nalishlardan biridir [12; 13]. Tadqiqotlarning aksariyati qishloq xo'jaligi dronlarining purkash jarayonidagi ustunliklarini empirik dalillar bilan asoslaydi.

Bir qator manbalarda dron yordamida purkashda ishchi suyuqlik (suv) sarfi an'anaviy yerusti purkagichlariga nisbatan 90–97 foizga kamayishi qayd etiladi: agrodron bir gektarga o'rtacha 10–20 litr suyuqlik sarflasa, traktorli purkagich uchun bu ko'rsatkich 200–500 litrni tashkil etadi [1; 2; 10]. Mehnat resurslari bo'yicha tadqiqotlar dron texnologiyasi an'anaviy usulga qaraganda 50–90 foiz kam ishchi kuchi talab qilishini, bir operator katta maydonga xizmat ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatadi [3]. Iqtisodiy baholashga bag'ishlangan ishlarda esa umumiy operatsion xarajatlarning sezilarli darajada qisqarishi va hosildorlikning 5–20 foizga oshishi haqidagi natijalar keltiriladi [4].

Energiya va atrof-muhit izi nuqtai nazaridan o'tkazilgan qiyosiy tadqiqotda dron bilan purkash an'anaviy usulga nisbatan kimyoviy chiqindilarni va suv sarfini kamaytiribgina qolmay, hayot sikli davomida energiya iste'moli hamda karbonat angidrid emissiyasini ham pasaytirishi aniqlangan [5]. Aynan shu ishda traktorli purkashda yonilg'i sarfi energiya iste'molining asosiy ulushini tashkil etishi va uni dron texnologiyasi bilan almashtirish qayta tiklanadigan energiya samaradorligini oshirishi ko'rsatib o'tilgan. Boshqa tadqiqotlarda esa aniq dehqonchilik va resurslarni boshqarishning integratsiyalashgan tizimlari suv iste'molini 70 foizdan ortiqqa, energiya sarfini esa 30 foizga kamaytirishi mumkinligi keltiriladi [6; 11].

Mahalliy, ya'ni o'zbek manbalari va amaliyoti tahlili ham mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi faoliyatini zamonaviy dron texnologiyalari asosida raqamlashtirish bo'yicha ilk ilmiy-amaliy loyiha doirasida tuproq unumdorligi, ekin maydonlaridagi kasalliklar va zararkunandalar dronlar yordamida aniqlanib, ma'lumotlar bazasi shakllantirilgani hamda odatda bir necha kishi kunlab bajaradigan dala monitoringi ishlarini dron qisqa vaqtda bajarishi ko'rsatilgan [15]. Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanidagi Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish ilmiy-tadqiqot instituti hududida xorijiy hamkorlar bilan birgalikda aqlli qishloq xo'jaligi

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

texnikalari va agrodronlarni mahalliylashtirilgan holda ishlab chiqarish loyihasi yoʻlga qoʻyilmoqda [17]. 2025-yilda esa Qishloq xoʻjaligi vazirligi huzurida dron xizmatlarini koʻrsatuvchi markaz ishga tushirilib, 100 dan ortiq dron yordamida yer maydonlari va ekinlar monitoringi hamda ilgʻor agrotexnik tadbirlar amalga oshirildi [18]. Shu bilan birga, mazkur mahalliy ishlar asosan amaliy-tashkiliy xususiyatga ega boʻlib, ularda dron texnologiyalari samaradorligini yagona koʻrsatkichga keltiruvchi ilmiy asoslangan baholash metodikasi shakllantirilmagan.

Shu bilan birga, koʻpchilik tadqiqotlar samaradorlikni alohida koʻrsatkichlar boʻyicha baholaydi va turli oʻlchov birliklaridagi natijalarni yagona, taqqoslanadigan koʻrsatkichga keltiruvchi yaxlit metodologiya kam ishlab chiqilgan. Iqtisodiy va texnik tahlilda turli xil koʻrsatkichlarni bittaga jamlovchi integral (yigʻma) indekslardan foydalanish keng tarqalgan yondashuv boʻlib [7], u resurs tejamkor texnologiyalarni qiyosiy baholashda ham qoʻllanilishi mumkin. Mahalliy sharoitda, yaʼni Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligi va davlat siyosati kontekstida [8; 9; 16], dron texnologiyalarining mehnat va energiya resurslariga taʼsirini integral tarzda oʻlchaydigan metodika hozircha yetarlicha shakllanmagan. Mazkur maqola ushbu boʻshliqni toʻldirishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy umumlashtirish, qiyosiy tahlil, optimallashtirish va vaznli yigʻindi (additiv svertka) usullaridan foydalanildi. Maʼlumotlar bazasini ilmiy adabiyotlardagi empirik natijalar, qiyosiy texnik koʻrsatkichlar hamda Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligiga oid meʼyoriy hujjatlar tashkil etdi. Metodikani sinovdan oʻtkazish uchun obyekt sifatida paxtachilikdagi purkash (oʻsimliklarni himoya qilish va defoliatsiya) jarayoni tanlandi, chunki bu jarayon Oʻzbekistonda katta maydonlarda takrorlanadi hamda sezilarli darajada suv, yonilgʻi va mehnat resurslarini talab qiladi.

Integral baholash metodikasi quyidagi bosqichlardan iborat: (1) baholash koʻrsatkichlari tizimini shakllantirish; (2) har bir koʻrsatkichni uning yoʻnalishiga mos ravishda optimallashtirish; (3) koʻrsatkichlarga eʼtibor (ahamiyat koeffitsienti) berish; (4) optimallashtirilgan qiymatlarni vaznlashtirilgan yigʻindi orqali yagona integral indeksga keltirish; (5) anʼanaviy va dron texnologiyalarining integral indekslarini qiyoslash hamda resurs tejamkorligi samarasini aniqlash (1-rasm).




**1-rasm. Integral baholash metodikasining bosqichlari**

Koʻrsatkichlarni optimallashtirishda ularning ikki turi farqlanadi. “Koʻrsatkich qanchalik katta boʻlsa, shunchalik yaxshi” (masalan, mehnat unumdorligi, iqtisodiy samaradorlik) boʻlgan hollarda (1) formuladan, “Koʻrsatkich qanchalik kichik boʻlsa, shunchalik yaxshi” (masalan, yonilgʻi, suv yoki energiya sarfi) boʻlgan hollarda esa (2) formuladan foydalaniladi:

$$x_i = (X_i - X_{min}) / (X_{max} - X_{min}) \quad (1)$$

$$x_i = (X_{max} - X_i) / (X_{max} - X_{min}) \quad (2)$$

bu yerda:

$x_i$ — i-koʻrsatkichning optimallashtirilgan (0 dan 1 gacha boʻlgan) qiymati;

$X_i$ — koʻrsatkichning haqiqiy qiymati;

$X_{min}$ va $X_{max}$ — mos ravishda taqqoslanayotgan texnologiyalar boʻyicha koʻrsatkichning eng kichik va eng katta qiymatlari.

Yagona integral samaradorlik indeksi optimallashtirilgan koʻrsatkichlarning vaznli yigʻindisi sifatida (3) formula boʻyicha hisoblanadi:

$$I = \Sigma (w_i \cdot x_i), \quad i = 1 \ldots n, \quad bunda\ \Sigma w_i = 1 \quad (3)$$

bu yerda:

I — texnologiyaning integral samaradorlik indeksi ($0 \le I \le 1$);
$w_i$ — i-ko'rsatkichning vazni (ahamiyat koeffitsienti);
n — ko'rsatkichlar soni.

Vaznlar ekspert baholash usulida, mavzuning maqsadidan kelib chiqib — mehnat va energiya resurslariga ustuvor ahamiyat berilgan holda — belgilanadi. Texnologiyalar aro resurs tejamkorlik samarasi esa integral indekslar nisbati orqali (4) formula bilan aniqlanadi:

$$\Delta = (I_dron - I_an'anaviy) / I_an'anaviy \cdot 100\% \quad (4)$$

## TAHLIL VA NATIJALAR

Taklif etilgan metodikaga muvofiq, dastlab dron texnologiyalarining mehnat va energiya resurslarini tejashga ta'sirini aks ettiruvchi besh guruh ko'rsatkichdan iborat baholash tizimi shakllantirildi. Har bir ko'rsatkichning yo'nalishi (maksimallashtirish yoki minimallashtirish) hamda unga berilgan vazn quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval.
Dron texnologiyalari samaradorligini integral baholash ko'rsatkichlari tizimi

| Ko'rsatkich | O'lchov birligi | Yo'nalishi | Vazn ($w_i$) |
|---|---|---|---|
| Mehnat unumdorligi (W) | ga/ish-soat | max | 0,25 |
| Energiya tejamkorligi (E) | MJ/ga | min | 0,25 |
| Yonilg'i / quvvat sarfi (F) | l (yoki kVt·s)/ga | min | 0,20 |
| Suv (ishchi suyuqlik) sarfi (Q) | l/ga | min | 0,15 |
| Iqtisodiy samaradorlik (xarajat o'rni) (C) | nisbiy birlik | max | 0,15 |
| **Jami** | — | — | **1,00** |

Manba: muallif tomonidan adabiyotlar tahlili asosida ishlab chiqildi.

Keyingi bosqichda paxtachilikdagi purkash jarayoni bo'yicha an'anaviy (traktorli purkagich) va dron texnologiyalarining bir gektarga hisoblangan o'rtacha ko'rsatkichlari qiyoslandi. Qiymatlar adabiyotlardagi empirik diapazonlar asosida mahalliy sharoitga moslashtirilgan o'rtacha ko'rsatkichlar sifatida qabul qilindi. Energiya iste'moli yonilg'i va elektr quvvati sarfini umumiy energetik ekvivalentga (MJ) keltirish orqali hisoblandi (dizel yonilg'isi uchun taxminan 1 litr ≈ 36 MJ) (2-jadval).

2-jadval.
An'anaviy va dron texnologiyalarining qiyosiy ko'rsatkichlari hamda optimallashtirilgan qiymatlari (1 ga, purkash jarayoni)

| Ko'rsatkich | An'anaviy | Dron | x (an'anaviy) | x (dron) | Vazn |
|---|---|---|---|---|---|
| Mehnat unumdorligi, ga/ish-soat | 0,6 | 5,0 | 0,00 | 1,00 | 0,25 |
| Energiya sarfi, MJ/ga | 360 | 20 | 0,00 | 1,00 | 0,25 |
| Yonilg'i/quvvat sarfi*, l-ekv./ga | 10,0 | 0,6 | 0,00 | 1,00 | 0,20 |
| Suv (ishchi suyuqlik), l/ga | 250 | 18 | 0,00 | 1,00 | 0,15 |
| Iqtisodiy samaradorlik, nisbiy birlik | 1,00 | 1,85 | 0,00 | 1,00 | 0,15 |

* Yonilg'i/quvvat sarfi umumiy energetik ekvivalentga keltirilgan. Manba: [1–6; 10] asosida muallif hisob-kitobi.

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, barcha besh ko'rsatkich bo'yicha dron texnologiyasi an'anaviy usuldan ustun keladi. Ikki texnologiya qiyoslanganligi sababli, optimallashtirishdan so'ng har bir ko'rsatkich bo'yicha eng yaxshi (dron) qiymat 1,00 ga, eng yomon (an'anaviy) qiymat esa 0,00 ga teng bo'ldi. Bu holat ko'rsatkichlar tizimining yagona yo'nalishliligini, ya'ni dron texnologiyasi har bir mezon bo'yicha resurs tejamkorlikni ta'minlashini ko'rsatadi. Aniqlik uchun ta'kidlash lozimki, ikkitadan ortiq texnologiya yoki bir nechta dala tajribasi qiyoslanganda optimallashtirilgan qiymatlar 0 va 1 oralig'idagi turli kattaliklarni oladi va integral indeks farqlovchi xususiyatga ega bo'ladi (2-rasm).

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY




2-rasm. An’anaviy va dron texnologiyalariningqiyosiy ko‘rsatkichlari

(3) formula asosida har bir texnologiyaning integral samaradorlik indeksi hisoblandi:

$$I_an'anaviy = 0{,}25\cdot 0 + 0{,}25\cdot 0 + 0{,}20\cdot 0 + 0{,}15\cdot 0 + 0{,}15\cdot 0 = 0{,}00 \quad (5)$$

$$I_dron = 0{,}25\cdot 1 + 0{,}25\cdot 1 + 0{,}20\cdot 1 + 0{,}15\cdot 1 + 0{,}15\cdot 1 = 1{,}00 \quad (6)$$

Demak, ko‘rib chiqilgan ko‘rsatkichlar tizimi va vaznlar doirasida dron texnologiyasining integral samaradorlik indeksi maksimal qiymatga (1,00) erishadi, an’anaviy texnologiya esa minimal qiymatda (0,00) qoladi. Bu natija mavjud empirik dalillar bilan mosdir: dron texnologiyasi mehnat sarfini bir necha barobar kamaytiradi, dala bosqichidagi energiya iste’molini bir tartibga pasaytiradi (yonilg‘idan elektr quvvatiga o‘tish hisobiga), ishchi suyuqlik sarfini esa o‘n barobardan ortiqqa qisqartiradi (3-rasm).




**3-rasm. Integral baholash metodikasida ko‘rsatkichlar vazni va texnologiyalarning integral samaradorlik indeksini qiyosiy baholash**

Alohida resurs ko‘rsatkichlari bo‘yicha tejamkorlik darajasi quyidagicha baholandi. Mehnat resurslari bo‘yicha bir gektarga sarflanadigan ish vaqti hisobiga mehnat unumdorligi taxminan 0,6 ga/ish-soatdan 5,0 ga/ish-soatgacha oshadi. Energiya resurslari bo‘yicha bir gektarga to‘g‘ri keladigan to‘g‘ridan to‘g‘ri energiya sarfi taxminan 360 MJ dan 20 MJ gacha kamayadi, bu esa 90 foizdan ortiq tejamkorlikni anglatadi. Suv (ishchi suyuqlik) sarfi 250 litrdan 18 litrga, ya’ni 90 foizdan ko‘proqqa qisqaradi. Bu ko‘rsatkichlar dron texnologiyasining aynan mehnat va energiya resurslarini tejashdagi yetakchi ustunligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, metodikani amalda qo‘llashda bir qancha cheklovlarni hisobga olish zarur.

Birinchidan, dron texnologiyasi batareyalarini quvvatlash uchun sarflanadigan elektr energiyasi va uni ishlab chiqarish manbai (qayta tiklanadigan yoki an’anaviy) yakuniy energetik balansga ta’sir qiladi.

Ikkinchidan, integral indeks vaznlarga sezgir bo‘lib, vaznlar tarkibini o‘zgartirish natijani o‘zgartirishi mumkin. Shu sababli ekspert baholash bosqichini puxta tashkil etish va sezuvchanlik tahlilini o‘tkazish tavsiya etiladi.

Uchinchidan, dronlarning purkash sifati (tomchilar taqsimotining bir tekisligi) ayrim sharoitlarda yerusti texnikasidan farq qilishi mumkin, shuning uchun agrotexnik sifat ko'rsatkichlarini ham metodikaga qo'shimcha mezon sifatida kiritish maqsadga muvofiq. Shunga qaramay, taklif etilgan integral yondashuv turli o'lchov birliklaridagi ko'rsatkichlarni yagona, taqqoslanadigan bahoga keltirib, resurs tejamkor texnologiyalarni obyektiv qiyoslash imkonini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligida dron texnologiyalari mehnat va energiya resurslarini tejashning samarali vositasi ekanini ko'rsatdi. Maqolada taklif etilgan integral baholash metodikasi besh guruh ko'rsatkichni — mehnat unumdorligi, energiya tejamkorligi, yonilg'i/quvvat sarfi, suv sarfi va iqtisodiy samaradorlikni — optimallashtirish hamda vaznli yig'indi orqali yagona integral indeksga keltirish imkonini beradi. Bu esa turli o'lchov birliklaridagi natijalarni taqqoslanadigan ko'rinishga keltirib, texnologiyalarni obyektiv qiyoslashga xizmat qiladi.

Paxtachilikdagi purkash jarayoni misolida o'tkazilgan hisob-kitoblar dron texnologiyasining integral samaradorlik indeksi an'anaviy texnologiyanikidan sezilarli darajada yuqori ekanini ko'rsatdi. Alohida ko'rsatkichlar bo'yicha dron texnologiyasi dala bosqichidagi energiya sarfini va ishchi suyuqlik hajmini 90 foizdan ortiqqa kamaytiradi, mehnat unumdorligini esa bir necha barobarga oshiradi.

Olingan natijalar asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

– dron texnologiyalarining samaradorligini baholashda bitta ko'rsatkich bilan cheklanmasdan, mehnat, energiya, suv va iqtisodiy ko'rsatkichlarni qamrab oluvchi integral yondashuvdan foydalanish;

– metodikaning ishonchliligini oshirish maqsadida vaznlarni belgilashda ekspert baholash hamda sezuvchanlik tahlilini birgalikda qo'llash;

– metodikani turli ekinlar (paxta, g'alla, bog'dorchilik) va turli jarayonlar (purkash, o'g'itlash, monitoring) bo'yicha real dala tajribalari ma'lumotlari bilan to'ldirib, mahalliy normativ bazani shakllantirish;

– dron batareyalarini quvvatlashda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish orqali texnologiyaning yakuniy energetik samaradorligini yanada oshirish;

– davlat dasturlari doirasida qishloq xo'jaligi dronlarini joriy etishni texnik-iqtisodiy asoslashda mazkur integral metodikadan baholash vositasi sifatida foydalanish.

Umuman olganda, taklif etilgan integral baholash metodikasi resurs tejamkor texnologiyalarning mexanizatsiya samaradorligini miqdoriy o'lchashda amaliy vosita bo'lib xizmat qilishi va O'zbekistonda qishloq xo'jaligini raqamlashtirish hamda barqaror rivojlantirish vazifalarini hal etishga hissa qo'shishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Agro drones reduce water usage in spraying: Operational data review. Tapscape, 2025. URL: https://www.tapscape.com
2. Agriculture spraying drones: Benefits and resource savings. Farmonaut Precision Farming, 2025. URL: https://farmonaut.com
3. The economics of drone spraying: ROI for farmers. Avary Drone Analytical Review, 2025.
4. Drone spraying in agriculture: Efficiency, cost and best practices. Jinghong Drone Technical Review, 2025.
5. Reducing energy and environmental footprint in agriculture: A study on drone spraying vs. conventional methods. PLOS ONE. 2025. DOI: 10.1371/journal.pone.0323779.
6. Rehman A. et al. Integrated framework of renewable energy, IoT-based energy management and precision robotics in smart agriculture. 2024.
7. Saaty T. L., Vargas L. G. Models, Methods, Concepts and Applications of the Analytic Hierarchy Process. Springer, 2012.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-dekabrdagi "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-431-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-7261011
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-avgustdagi "Qishloq xo'jaligi sohasiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish to'g'risida" PF-130-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-7694880?ONDATE=15.08.2025%2000
10. Sahni R. et al. Efficiency of drone spraying in precision agriculture: Chemical waste, water use and yield. 2024.
11. FAO. Precision Agriculture Technologies for Sustainable Crop Production. Rome: FAO, 2023.
12. Yallappa D., Veerangouda M. et al. Development and evaluation of drone-mounted sprayer for crop protection. Agricultural Engineering, 2021.

13. Mogili U. R., Deepak B. B. V. L. Review on application of drone systems in precision agriculture. Procedia Computer Science. 2018. Vol. 133. P. 502–509.
14. Oʻzbekiston 2026-yilda agrodronlar parkini kengaytiradi: qishloq xoʻjaligida dron xizmatlari. Spot.uz, 2025. URL: https://www.spot.uz
15. Qishloq xoʻjaligi faoliyatini zamonaviy dron texnologiyalari asosida raqamlashtirish: ilmiy-amaliy loyiha // Oʻzbekiston Respublikasi Yer resurslari va kadastr agentligi rasmiy axborot xizmati. Toshkent, 2022. URL: https://kadastr.uz
16. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrdagi "Oʻzbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida" 721-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-5748172
17. Oʻzbekiston va Malayziya dronlar ishlab chiqarishda hamkorlik qiladi: Yangiyoʻl tumanidagi Qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalashtirish ilmiy-tadqiqot instituti hududida aqlli qishloq xoʻjaligi texnikalari va agrodronlarni mahalliylashtirilgan holda ishlab chiqarish loyihasi. Daryo.uz. 2025-yil 6-fevral. URL: https://daryo.uz
18. Oʻzbekiston 2026-yilda Xitoydan 50 dan ortiq agrodron oladi: Qishloq xoʻjaligi vazirligi huzurida dron xizmatlarini koʻrsatuvchi markaz faoliyati. Spot.uz. 2025-yil 10-dekabr. URL: https://www.spot.uz

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 7/1**



© Materiallar koʻchirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz